

MAKTAB O'QUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR JIHLTLARI

Hamzayeva Aziza Faxriddin qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1kurs magistrant

Annotatsiya (Abstrakt)

Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ustuvor jihatlari o'rganiladi. Maqolada o'quvchilarda qiziqishni uyg'otish va motivatsiyani oshirish, ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rgatish, amaliy faoliyatni rivojlantirish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rag'batlantirish, texnologiyalardan foydalanish, hamkorlik va jamoaviy ishlarni tashkil etish, shuningdek, natijalarni baholash va taqdim etish kabi ustuvor jihatlari tahlil qilinadi. Ushbu jihatlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Maqola ilmiy-tadqiqot metodlarini maktab o'quvchilari orasida keng tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar; Tadqiqotchilik, metodik mazmun, kompetensiya, maktab o'quvchilari, rivojlanish, individual yondashuv, ko'nikma;

Kirish qism (Introduction)

Darslarni o'zlashtirishda mavzularni kichik tadqiqotlar shaklida o'quvchilarga o'rgatilishi bevosita ularda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Bu esa darslarini o'zlashtirishni ilmiy-tadqiqotchilikka yo'naltirish imkonini yaratadi. O'quvchilarning sinfdan sinfga o'tish davomida ularning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik mazmunini to'g'ri tashkil etish bosqichma-bosqich yuqori sinf o'quvchilarining mustaqil ishlarini, kichik loyiha ishlarini bajarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism (Main part)

Ta'lim bilan bog'liq adabiyotlarda kompetentlilik tushunchasiga juda ko'p olimlarning tadqiqiy fikr-mulohazalari keltirilgan. Kompetensiya – bu egallangan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va uni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetentlilik (lot: competens – layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining uning ijtimoiy professional mavqei va o'ziga tegishli vazifalar bajarish, muammolar hal qilishga yetarliligi ham haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi

kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta’kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar bir butun majmuidir deb hisoblashadi.

Maktab o’quvchilarida ko’nikmalarni kompetensiya darajasiga aylantirilishi biroz qiyin masaladek tuyuladi, maktab o’quvchilarining bevosita tadqiqotchilik kompetensiyasini egallashi bosqichma-bosqich davom etadi. Ya’ni o’quvchi kichik tadqiqotlarni amalga oshirish davomida o’rganilayotgan ob’ektni tadqiq etish uni mustaqil o’rganish, izlanish, adabiyotlarni o’qish, internet ma’lumotlarini saralash kabi ilmiy faoliyatga yo’nalitirish o’qituvchi hamkorligida bajarilganligi bois, o’quvchi har doim o’qituvchisidan ma’naviy ko’makka va e’tiborga ehtiyoj sezadi. Shu ma’noda ta’kidlash joizki, tadqiqotchilik ko’nikmalari har bir sinf o’quvchilari orasida juda ko’pchiligini tashkil etmasligi mumkin, lekin shunday bo’lsada aynan fanga qiziqishi bo’lgan yoki tadqiqot qilishni xohlovchilar bo’lishi mumkin. Agar o’qituvchi tomonidan o’z tajribasi davomida o’quvchini to’g’ri yo’nalitirishi kelajakda o’quvchida fan doirasida sof bilim, ko’nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, ularni real baholay olish, mantiqiy fikrlashi, axborotni saralash va foydalana olish ko’nikmalarini ham birgalikda samarali rivojlantiriladi.

Yuqori sinf o’quvchilarini tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirishda bajarilgan tadqiqot vazifasiga ham bog’liq bo’ladi. Ya’ni har bir o’quv predmeti maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o’quvchilarning qiziqishlarini qamrab oladi. Biologiya darslari ham o’quvchilarni ko’p tomonlama o’ziga jalb etadi.

Tadqiqotchilik Ko’nikmalari haqida umumiy ma’lumot

Tadqiqotchilik ko’nikmlari, o’quvchilarning o’zlarini o’rganish, tushunish va yaratish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tashkil etilgan.

Bu ko’nikmlar o’quvchilarning fikr-mulohazalarini tushunish, masalalar yechish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ustuvor Jihatlar

Amaliyotga asoslangan tadqiqotlar: O’quvchilarning ko’nikmlari amaliyotda rivojlantirish uchun, darsliklar va qo’llanmalar orqali amaliyotlarni o’tkazish juda muhimdir.

Individual yondashuv: Har bir o’quvchi o’zining maxsus ko’nikmlari va qobiliyatlariga muvofiq individual yondashuvni qabul qilishi kerak.

Texnologiyalardan foydalanish: Interaktiv darsliklar, onlayn platformalar va texnologik vositalardan foydalanish, o’quvchilarning tadqiqotchilik ko’nimlarini rivojlantirish uchun juda foydali bo’ladi.

O’quv jarayonini boshqarish: O’quv jarayonida tadqiqotchilik ko’nikmalariga aloqador mashg’ulotlar, vazifalar va loyihalar tuzish, o’quvchilarning fikr-mulohazalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bu jihozlar o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmlarini shakllantirishning ustuvor yollari sifatida ko'rsatiladi. Bu mavzuga oid tajribalar va yangi ilmiy tadqiqotlar esa davom etib kelmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tadqiqotchilik faoliyatini turli mazmun va ko'rinishda tashkil etish mumkin: bolaning oilasi yoki mahallasi haqida hikoya qilish, uyidan maktabgacha bo'lgan masofada qanday obyektlar borligini aytish topshirig'i, berilgan mavzu asosida mustaqil axborot tayyorlash, berilgan hikoya syujetiga yoki obrazlar xarakterini teskarisiga tasvirlash [orqali hikoya tayyorlash](#), ob-havoni kuzatish va maxsus kundalik tutish va qayd etib borish, buziq o'yinchoqlarni ta'mirlash yoki madelini yig'ish, berilgan so'zlar orqali hikoya tuzish, qiziq ertak yoki hikoya tayyorlash, hikoyaga rasm chizish va ulardan multfilm yaratish, qaysidir fikrning isbotini mustaqil topish, dars jarayonida mavzu yuzasidan savolnomalar tayyorlash, matnga mavzu topish, yangi ma'lumotlarni rasmlar, chizma va jadvallar asosida tayyorlash va boshqalar.

Tadqiqotchilik usulini qo'llashda bolalarning kuzatuvchanlik qobiliyati alohida o'rin egallaydi. Kuzatuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun amerikalik pedagog Sandra Kaplan qo'llanma tayyorlagan va quyidagilarni rivojlantirish zarur ligini ko'rsatib o'tgan:

1. Ilmiy tadqiqot yoki kashfiyotga taalluqli atamalarni aniqlash;
2. Tadqiqotni yo'naltiruvchi tayanch so'zlarni [ajratish](#);
3. Tadqiqot savollarini qo'yish;
4. Axborotni topish va tavsiflash.

Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun maxsus tadqiqotlarni doimiy olib borish talab etiladi va u quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin:

- O'quvchi tadqiqot o'tkazish uchun tadqiqot mavzusini yoki o'zi qiziqtirgan mavzuni tanlash. O'qituvchining vazifasi mavzuni tahrirlash va ko'lamini belgilashdan iborat.

- Mavzuning qaysi jihatlari tadqiq qilinayotganligini aniqlashtiruvchi savolnoma tuzish. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar birgalikda aniqlangan tayanch so'zlar asosida savollarni belgilashadi.

- Tadqiqotni o'tkazish. O'quvchilar to'plangan ma'lumotlarni kartochkalarga yozib borishadi va tahrirlashadi, ya'ni qo'yilgan savollar asosida tizimlashtirishlari kerak.

Ilm fan va texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda ertangi kunimiz, kelajagimiz bo'lgan yoshlar ta'lim tarbiyasi kun tartibidagi muhim masalalardan biri hisoblanar ekan, ta'lim tizimi xususan boshlang'ich ta'lim mazmunini zamonaviylashtirish, yangi usul va vositalarni olib kirish, o'quvchining dunyoqarashini kengaytiradigan, fikrlash qobiliyatini o'stiradigan, yangicha yondashuv va takliflarni bera oladigan kashfiyotchi bolalarni tarbiyalash har

qachongidan ham muhim hisoblanadi. Buning uchun esa dars mazmunini yanada boyitish, tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish, bola ongida bilimlarni obrazli ifodalash, kuzatuvchanlik, diqqatlilik, amalda foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Ta'limning vizual usullari esa borliq olamni qisqa fursatda tez, oson va samarali egallashlariga, amalda qo'llashning imkoni bo'lmagan tajribalarni ham ko'rish orqali tushunchalar hosil qilishning asosiy vositasi sanaladi.

Natijalar va muhokamalar (Results and Discussions).

Maktab o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ustuvor jihatlari muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni kelajakda muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun zarurdir. Quyida maktab o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning ba'zi asosiy ustuvor jihatlari keltirilgan:

1. Qiziqishni uyg'otish va motivatsiyani oshirish

✓ Mazmunli mavzular tanlash: O'quvchilarga qiziqarli va dolzarb mavzularni taklif etish orqali ularning tadqiqotga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish mumkin.

✓ Motivatsiya yaratish: Rag'batlantiruvchi omillarni qo'llash (masalan, tanlovlar, mukofotlar va tan olingan natijalar) orqali o'quvchilarni tadqiqot olib borishga undash.

2. Ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rgatish

✓ Tadqiqot metodologiyasini o'rgatish: O'quvchilarga ilmiy tadqiqot metodlarini (masalan, eksperimentlar o'tkazish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish) o'rgatish.

✓ Kuchli nazariy asos yaratish: Tadqiqotchilikning nazariy jihatlarni o'rganish uchun o'quv dasturlarini boyitish.

3. Amaliy faoliyatni rivojlantirish

✓ Loyihaviy ishlar va laboratoriya ishlari: O'quvchilarga amaliy loyihalar va laboratoriya ishlari orqali tajriba o'tkazish imkoniyatlarini taqdim etish.

✓ Ilmiy to'garaklar va klublar: Maktablarda ilmiy to'garaklar va klublar tashkil etish orqali o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish.

4. Tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv

✓ Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: O'quvchilarga muammolarni tanqidiy tahlil qilish va yechimlarni izlash ko'nikmalarini shakllantirish.

✓ Ijodiy fikrlashni rag'batlantirish: O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish.

5. Texnologiyalardan foydalanish

✓ Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: Tadqiqot jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatish.

✓ Onlayn resurslar va ma'lumotlar bazalari: O'quvchilarga ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan onlayn resurslar va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish.

6. Hamkorlik va jamoaviy ishlar

✓ Jamoaviy tadqiqot loyihalari: O'quvchilarni jamoaviy tadqiqot loyihalarida ishtirok etishga jalb qilish.

✓ O'zaro yordam va maslahatlar: O'quvchilarning bir-birlariga yordam berish va maslahatlar almashish uchun imkoniyatlar yaratish.

7. Natijalarni baholash va taqdim etish

✓ Tadqiqot natijalarini taqdim etish: O'quvchilarga o'z tadqiqot natijalarini taqdim etish, himoya qilish va baholash imkoniyatlarini yaratish.

✓ Obyektiv baholash mezonlari: Tadqiqot natijalarini baholash uchun obyektiv va adolatli mezonlarni ishlab chiqish.

Ushbu ustuvor jihatlar maktab o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qiladi va ularning ilmiy-texnikaviy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa (Conclusion).

Maktab o'quvchilarida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim jarayonida alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning qator ustuvor jihatlari ko'rib chiqildi. O'quvchilarda qiziqish va motivatsiyani oshirish, ilmiy-tadqiqot metodlarini o'rgatish, amaliy faoliyatni rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, hamkorlik va jamoaviy ishlarni tashkil etish kabi yondashuvlar tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir.

O'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyati, muammolarni hal qilish qobiliyati va ijodiy potentsiali ortadi. Natijada, o'quvchilar kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu ustuvor jihatlarni ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali maktablarda ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References).

1. Abdullaeva q. Ochilov M., K.Nazarov, S.Fuzailov, N.Bikbaeva «Boshlang'ich maktab darsliklarini yaratish mezonlari. T.: 1999.

2. R.A.Mavlonova N.Raxmonqulova “Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi” T.: Ili-Ziyo 2009 y.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Boshlang‘ich sinf tarbiya va port to‘g‘risida» qonuni (Yangi taxrirda). 2000.
4. Educational issues in the works of enlightened intellectuals F Rahmatova, K Abrorkhonova. Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar 1 (Архив№ 2)
5. VIRTUAL TOUR IN PRIMARY SCHOOL K Abrorkhonova, S Khudoyberdieva European International Journal of Multidisciplinary Research and Management
6. Organization of excursions in primary school classes K Abrorkhonova, S Khudoyberdiyeva International Scientific and Current Research Conferences.